

O‘ZBEK TILI YURIDIK DISKURSIDA SUBYEKTNING AKS ETISH OMILLARI

Ubaydullayeva Xolida Manopovna

Navoiy davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

Tel: +998906365603

xolidaubaydullayeva066@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuridik diskursda subyektning aks etish omillari, ularning lingvistik va pragmatik xususiyatlari, shuningdek, subyektlikning yuridik matnlardagi funksional roli tahlil qilinadi. Shu orqali yuridik hujjatlar va qonun, farmonlarda subyektning qanday vositalar yordamida va qanday maqsadlarda ifodalanishi ochib beriladi.

Annotation. This article analyzes the factors of reflection of the subject in legal discourse, their linguistic and pragmatic characteristics, as well as the functional role of the subject in legal texts. This reveals the means by which and for what purposes the subject is expressed in legal documents, laws, and decrees.

Аннотация. В статье анализируются факторы отражения субъекта в юридическом дискурсе, их лингвистические и прагматические характеристики, а также функциональная роль субъекта в юридических текстах. При этом выявляются средства, с помощью которых и для каких целей субъект выражается в правовых документах, законах, указах.

Kalit so‘zlar: subyekt, shaxs olmoshlari, yuridik matn, preskriptiv (buyruq-yo‘naltiruvchi), axborot-yo‘naltiruvchi va prohibitiv (taqiqlovchi) funksiyalar, pragmatik, sotsiomadaniy, psixologik omillar

Keywords: subject, personal pronouns, legal text, prescriptive (command-directive), information-directive and prohibitive (prohibitive) functions, pragmatic, sociocultural, psychological factors

Ключевые слова: субъект, личные местоимения, юридический текст, предписывающая (командно-директивная), информационно-директивная и запретительная (запретительная) функции, прагматические, социокультурные, психологические факторы.

Til va nutq har qanday huquqiy faoliyatning ajralmas vositasi hisoblanadi. Yuridik diskurs – bu huquq sohasida shakllanadigan va amal qiladigan maxsus nutqiy faoliyat turi bo‘lib, unda subyektning aks etish darajasi va shakli muhim ahamiyat kasb etadi. Yuridik matnlarning mohiyati va funksional yo‘nalishidan kelib chiqqan holda, ularda subyektlikning ifodalanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu jihat matnlarning ma‘nosini anglash, huquqiy talqin qilish va huquqiy normalarni amaliyotga joriy etishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yuridik diskursda subyektning lisoniy ifodalanishi vositalari orasida olmoshlar, fe‘l shakllari, modal birliklar va boshqa grammatik hamda pragmatik unsurlar alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, birinchi va uchinchi shaxs olmoshlarining ishlatilishi orqali matnda

subyektning ishtiroki darajasi va uning pozitsiyasi belgilab beriladi. Shu bilan birga, subyektning bevosita yoki bilvosita tarzda aks ettirilishi matnning kommunikativ yo‘naltirilishi, auditoriyaga ta’sir o‘tkazish darajasi va huquqiy-huquqiy munosabatlarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tili yuridik diskursida subyektning ifodalanish usullari, lingvistik vositalari va pragmatik-ma’no yuklamalari o‘rganiladi. Yuridik matnlarda subyektning ochiq yoki bilvosita ko‘rinishda namoyon bo‘lishi, bu orqali mas’uliyat, rasmiylik va obyektivlik kabi illokutsion maqsadlar amalga oshirilishi tahlil qilinadi.

Yuridik diskurs – huquqiy faoliyat doirasida shakllanadigan, rasmiy va ijtimoiy muhim xususiyatlarga ega bo‘lgan kommunikatsiya shaklidir. Bunday matnlarda subyektning qanday ifodalangani, uning bilvosita yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rinishda namoyon bo‘lishi muhim pragmatik yuklamalarga ega.

O‘zbek yuridik matnlarida subyekt aks ettirish usullari bir qator lingvistik va ideologik omillarga bog‘liq bo‘ladi: hokimiyat pozitsiyasi, mas’uliyatni taqsimlash, normativlik va obyektivlikni saqlash ehtiyoji. Bu holat yuridik nutqni boshqa rasmiy uslubdagi matnlardan ajratib turadi.

«Matn – diskurs» dixotomiyasida eng umumiy va universal tushuncha diskurs bo‘lib, u faqat til komponentlaridan tashqari, ko‘plab pragmatik, sotsiomadaniy, psixologik va boshqa, til tizimidan tashqaridagi omillarni ham o‘z ichiga oladi (diskursning manzili va adresanti, kommunikativ maqsad, vaqt chegaralari, madaniyat konteksti va boshqalar).

Qonunning ijtimoiy aloqalar maydonidagi funksiyalari orasida quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi: preskriptiv (buyruq-yo‘naltiruvchi), axborot-yo‘naltiruvchi va prohibitiv (taqiqlovchi). Prohibitiv funksiya mustaqil bo‘lishi mumkin, shuningdek, preskriptiv funksiyaning mantiqiy davomchisi sifatida, ayrim harakatlarga ruxsat berilganda yoki ular buyurilganda boshqa harakatlarga taqiq qo‘yilishi orqali ifodalanadi:

Besides the personal rights mentioned in the Government Code, every person has the right of protection from bodily restraint or harm, from personal insult, from defamation (California Civil Code).

(Davlat kodeksida qayd etilgan shaxsiy huquqlardan tashqari, har bir shaxs tanani cheklash yoki zararlashdan, shaxsiy haqoratdan va tuhmatdan himoyalaniş huquqiga ega.)

Shaxsga harakat erkinligi va sha’ni kafolatlangan holda, qonun avtomatik ravishda boshqa shaxslarga bu huquqni buzishni taqiqlaydi.

Axborot-yo‘naltiruvchi funksiya – qonun shaxslar va ularning birlashmalarining muayyan jamiyatdagi harakatlari va ongiga yo‘naltiruvchi ta’sir o‘tkazuvchi manba sifatida qaralishidan kelib chiqadi:

Защиту нарушенных или оспоренных гражданских прав осуществляет ... cyð (RF Fuqarolik kodeksi).

(Buzilgan yoki rad etilgan fuqarolik huquqlari himoyasi sud tomonidan amalga oshiriladi.)

Transfer is an act of the parties ... (California Civil Code).

(Ko‘chirish – bu tomonlar yoki qonun tomonidan amalga oshirilgan, mulkni bir shaxsdan boshqasiga o‘tkazish harakati.)

(1) misolda qonun buzilgan huquqni qanday himoya qilish haqida axborot beradi. (2) misolda esa – transfer atamasining ta’rifi berilgan bo‘lib, bu boshqa normativ bandlarda bu atama bilan ishlashni osonlashtiradi.

Konstitutsiya. Qonunchilik diskursining yana bir institutsional janri bu konstitutsiya bo‘lib, davlatning bosh qonuni, unda davlat boshqaruvining asosiy prinsiplari ifodalanadi va xalqning irodasi va manfaatlarini bayon etiladi [Rcdlich, 1999]. ²⁴Ta’rifga ko‘ra, konstitutsiyaning muhim xususiyati – xalqchiligi bo‘lib, uning **subyekt**i sifatida butun **xalq** e’tirof etiladi.

Qonundan farqli ravishda, konstitutsiya aralash tabiatga ega: bu huquqiy hujjat, siyosiy hujjat va mafkuraviy matn. U jamiyatning qadriyatlari va mafkurasidan kelib chiqadi va mamlakat siyosiy tizimiga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Konstitutsiyada qonunga xos funksiyalarga qo‘shimcha ravishda, yana deklarativ va integrativ funksiyalar ajralib turadi. Deklarativ funksiya – asosiy qadriyatlar va prinsiplarning bayon qilinishi. Bu qoidalar, odatda, preambular (muqaddima)da jamlanadi:

Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e’lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, ...ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz. ²⁵

(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023)

Ushbu fragmentdan integrativ funksiya ham kelib chiqadi: millat, xalq va davlat hokimiyati birligini e’tirof etish.

Ko‘pchilik qonunchilik diskursi uslubining neytralligiga ishonsa-da, yuqorida keltirilgan funksiyalarni amalga oshirishda ekspressiv-emotsional elementlar qo‘llanadi. Masalan, Irlandiya konstitutsiyasi preambulasining badiiy, hissiy ohangda yozilishi bunga misoldir.

Farmon. Qonunchilik diskursining shaxslashtirilgan janri sifatida farmon ko‘rib chiqiladi – bu davlat rahbari nomidan chiqariladigan yuridik hujjatdir:

“ O‘zbekiston -2030” strategiyasida quyidagi asosiy g‘oyalar aks ettirilganligi inobatga olinsin. ²⁶

(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF- 158-son)

An’anaviy qarashga ko‘ra, qonun – bu huquqiy tizimning asosi bo‘lib, u Alloh, aql, xalq irodasidan kelib chiqadi, farmon esa – qonun asosida chiqariladigan aniq topshiriqdir. U ham preskriptiv, informativ va prohibitiv funksiyalarni bajaradi.

Tarixiy jihatdan qaralganda, farmon diskursi subyektlari – monarxlar va prezidentlar – hech kimga hisobot bermaydigan va nazorat qilinmaydigan hujjatlar chiqarishga

²⁴ Rcdlich, N. Understanding Constitutional Law [Text] / N. Redlich, J. Attanasio, J. K. Goldstein. - N.-Y., 1999. - 558 p.

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF- 158-son

intilganlar. Ular “farmon huquqi”²⁷(V.V. Luchin kiritgan termin) orqali jamiyatda ommalashmagan qarorlarni asoslashga uringanlar. Masalan, Buxoro amirligi, Xiva xonligi davrida.

Bu holatda subyekt o‘zini avtonom, avtoritar shaxs sifatida ko‘rsatishga urinadi, qonun vakili emas. Bunda “men” paradigmasi orqali til darajasida aks etuvchi shaxsiylik diskursni shaxslashtirilgan huquqiy diskurs turiga mansub qiladi, biroq bu holat hamon institutsional matnda yuz beradi, ya’ni subyekt institutsional vakolat bilan ta’minlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF- 158-son
3. www.lex.uz — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlar bazasi.
4. Redlich, N. Understanding Constitutional Law [Text] / N. Redlich, J. Attanasio, J. K. Goldstein. - N.-Y., 1999. - 558 p.
5. Лучин, В. О. Указное право в России [Текст] / В. О. Лучин. - М. : ХГЦ Велес, 1996. - 52 с.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент -2008.
7. www.wikipedia.uz

²⁷ Лучин, В. О. Указное право в России [Текст] / В. О. Лучин. - М. : ХГЦ Велес, 1996. - 52 с.